

XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH BO'YICHA)
581 /22-LS-261 – sonli

08. iyul 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor v.b S.Mamatkulov bir tomonidan va "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MCHJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi D.Ahmedov ikkinchi tomonidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 5.07.2022 yildagi 113153-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Samarqand shahar Siyob hududi Andijoniy MFY 2-yo'lini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjalari ishlab chiqish belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.**
- 1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun bo'lgan boshlang'ich oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

- 2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **5 000 571** (besh million besh yuz yetmish bir) so'mni tashkil qiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

- 3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovinamalga oshiriladi.
- 3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlardan pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.
- 3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.
- 3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovnini amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 3.6. Ishlarni qiymatini uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:
 - ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
 - ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlar ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalananish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgardir.
- 4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlari va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.
- 4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlari va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.
- 4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'nda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovi amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va roziligidisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchini shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.
- 4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlari va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlarni berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.
- 4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.
- 4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlarni boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallanguna qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.
- 5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan SHNQ va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklarni yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlarni xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.
- 5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchini shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritsila, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.
- 5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshiradi.
- 5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjalari muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

- 6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolangan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi hamda elektron variantlari bilan «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.
- 6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.
- 6.3. Ishlarni tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.
- 6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmastigining asosli rad javobini bergen taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnomaga tuziladi.
- 6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida birto'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'nda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.
- 6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomanini bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.
- 6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnoma ko'nda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.
- 6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidenzial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni alash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'LMAJDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlар ro'y bergan vaqtga mutanosish ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki yo'chiha kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmsalik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlar ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoni yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklammagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd yoki boshqa shaklda (lekin cheklammagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qildi va shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovnini amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchiligi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoni shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlarni nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi. Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiyomatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni qiyomatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, xususani O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiylar kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida uch nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati"

DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiiev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteqa bank"

L/s: 304521860184067045990118039

STIR: 207251119


MFO: 00312

OKED: 70320

Direktor: V.B.

S.Mamatkulov

Mazkur shartnoma 24.08.1998-yilda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan etilaydi.

Yurist: 

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010

Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160

Tel 2335853, 231-11-52

"BAJARUVCHI"

Nomi: "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MCHJ

Manzili: Toshkent sh. Olmazor t Beruniy 2-uy 15-xona

Bank nomi: "Ipoteka-bank" Olmazor filiali

X/R: 2020 8000 8051 2411 5001


MFO: 00901


STIR: 306 714 958

OKNX: 96120

Direktor:

D.Ahmedov

Yurist: 



BAYONI

Samarqand shahri
Raislik qiluvchi

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor
Erkinovich

Maxmudov Sherzod
Ulug'bekovich

Bekmirzayev Azim
Xasanovich

Abduraimov Sobir Mamarajabovich
Narmatov Xurshid Umrbayevich

S.Mamatkulov

Komissiya raisi o'rribosari Bosh muhandis

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i,

Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK direktori S.Mamatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quydagi

- 1.Bulung'ur tuman Cho'yantepa MFY Mo'g'ol qishlog'i Zar-zamin ko'chasini
- 2.Jomboy tumanı Sherqo'rg'on MFY Guzay, urtabozor va Og'ajon qishlog'i ichki yo'llini
- 3.Jomboy tumanı Zarafshon MFY o'rtaob'z 1 va o'rtaob'z 2 ko'chasini
- 4.Kattaqo'r'g'on tumani Chorog'on MFY ichki yo'llini
- 5.Kattaqo'rg'on shahar Qo'shhovuz MFY ichki yo'llini
- 6.Kattaqo'rg'on shahar Yermachit MFY ichki yo'llini
- 7.Kattaqo'rg'on tumani A.Navoiy MFY ichki yo'llini
- 8.Kattaqo'rg'on tumani M.Ulug'bek MFY ichki yo'llini
- 9.Nurobod tumani Saroy MFY ichki yo'llini
- 10.Pastdarg'om tumani "Zarmon" MFY № 85 mакtabga borish yo'llini
- 11.Paxtachi tumani Burkut MFY 2-maktab yon ko'chasini
- 12.Payariq tumani Toxirshayh MFY Moylitepa qishlog'i asosiy ko'chasi va Nayman qishlog'ini Beglar guzari bilan bog'lovchi yo'llini
- 13.Qo'shrabot tumani Chimmos MFY ichki yo'llini
- 14.Qo'shrabot tumani Chinoq MFY ichki yo'llini
- 15.Qo'shrabot tumani Kuvkalla MFY ichki yo'llini
- 16.Samarqand tumani Kulba MFY ichki yo'llini
- 17.Samarqand tumani Rustam MFY Baraka ko'chasini
- 18.Samarqand tumani Quyi Chordara MFY (Chordara va Ittifoq ko'chalarini
- 19.Urgut tumani Muminobod MFY ichki yo'llini
- 20.Urgut tumani Qoratepa MFY Mingbulloq qishlog'i ichki yo'llini
- 21.Samarqand shahar Siyob hududi Andijoniy MFY 2-yo'llini
- 22.Payariq tumani Navbahor MFY Devarak qishlog'i ichki yo'llarini
- 23.Samarqand tumani Rustam MFY Baraka ko'chaslarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish to'g'risida

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev,)

"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan 2022 yil 24 Iyun O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 5 iyuldag'i eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portaliga orqali shakillangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib

YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuning 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyeklar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomma bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'imi boshlig'i X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 5 iyundagi elektron bayonnomalariga asosan "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ bilan qonunchilikda o'matilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olibi "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini SHNQ va QMQga mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish zavifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Sultanmurodov Elyor Erkinovich		Korxona bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich		Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i
Bekmirzayev Azim Xasanovich		Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i
Abduraimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i
Narmatov Xurshid Umrbayevich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i